

Iskandarova Kamola Tursunqul qizi,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
magistranti



MAKTAB O'QUV DASTURLARIDA HUQUQIY BILIMLARNING O'RNI VA MAZMUNI

Annotatsiya. Ushbu ishda maktab o'quv dasturlarida huquqiy bilimlarning o'rni va mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy tarbiyaning uzluksizligi, fanlararo integratsiya orqali o'quvchilarda huquqiy ong, mas'uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, boshlang'ich, o'rta va yuqori sinflarda huquqiy tushunchalarning berilish bosqichlari, ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va yoshlar huquqiy madaniyatini rivojlantirishdagi roli ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Аннотация. В данной работе анализируется роль и содержание правовых знаний в школьных учебных программах. Исследование раскрывает вопросы формирования правового сознания, ответственности и социальной активности учащихся через междисциплинарную интеграцию. Рассматриваются этапы изучения правовых понятий в начальных, средних и старших классах, а также их значение для развития правовой культуры молодежи.

Annotation. This paper analyzes the role and content of legal education in school curricula. It highlights the continuity of legal upbringing, interdisciplinary integration, and the development of students' legal awareness, responsibility, and civic engagement. The study examines the stages of introducing legal concepts in primary, secondary, and upper grades, emphasizing their significance in shaping legal culture among youth.

Tayanch so'zlar: huquqiy bilim, o'quv dasturi, huquqiy ong, mas'uliyat, huquqiy tarbiya.

Ключевые слова: правовые знания, учебная программа, правовое сознание, ответственность, правовое воспитание.

Keywords: legal education, curriculum, legal awareness, responsibility, civic culture.

**Bugungi
globallashuv
va axborot
texnologiyalari
jadal
rivojlanayotgan
davrda jamiyatning
huquqiy
madaniyati,
fuqarolarning
qonunlarga
hurmati hamda
ularning shaxsiy
huquq va
erkinliklarini
ongli ravishda
bilishi davlat
taraqqiyotining
eng muhim
mezonlaridan biri
bo'lib bormoqda.**

Kirish. Bugun davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida, shu jumladan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylilikni mustahkamlash eng muhim vazifalardan biridir. Ayni paytda umuminsoniy qadriyatlar va umume'tirof etilgan huquq andozalariga asoslangan, shaklan va mohiyatan yangi qonunlar qabul qilinmoqda. Ularning zahirida qonuniylilik, demokratizm, odillik, insonparvarlik kabi eng zarur tamoyillar yotadi. Bular esa jamiyatning har bir a'zosiga yetib borishi, har bir xonadonga kirib borishi kerak. Bugun aholining barcha qatlamlarining huquqiy savodxonligini oshirish, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari juda muhim¹.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda jamiyatning huquqiy madaniyati, fuqarolarning qonunlarga hurmati hamda ularning shaxsiy huquq va erkinliklarini ongli ravishda bilishi davlat taraqqiyotining eng muhim mezonlaridan biri bo'lib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarda huquqiy ong va huquqiy mas'uliyatni shakllantirish, ularni demokratik jamiyatda yashash qoidalariga o'rgatish umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dolzarb vazifalaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun,² "Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish konsepsiyasi"³ hamda qator hukumat qarorlarida maktab o'quv dasturlarida huquqiy ta'limga alohida e'tibor qaratilishi bejiz emas.

Maqsad va uni asoslash. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni, 2024-yil 2-fevraldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-53-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-son qarorida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, o'quv jarayonini davlat talablari asosida tashkil etish va ta'lim sifatini oshirish yo'lida tayanch o'quv rejasi tasdiqlandi.

Maktab o'quv dasturlarida huquqiy bilimlarning o'rni, avvalo, o'quvchilarda shaxsiy huquqlarni anglash, majburiyatlarni bajarish,

¹ <https://adliya.uz/ru/posts/huquqiy-bilim-jamiyatning-har-bir-a%CA%BCzosida-bo%CA%BBsin>

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni.

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 18.05.2020-yildagi 274-IV-son qarori.

huquqbuzarliklarning oldini olish, ijtimoiy munosabatlarni ongli ravishda tartibga solish ko'nikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Huquqiy bilimlar nafaqat "Huquq asoslari" fani orqali, balki tarbiya, tarix, jamiyatshunoslik, ona tili va informatika kabi boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda ham berilishi o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Bozor iqtisodiyoti, raqamli transformatsiya, global huquqiy jarayonlarning chuqurlashuvi sharoitida maktab o'quvchilarining huquqiy savodxonligi yuqori bo'lishi jamiyatning barqaror rivojlanishiga, fuqarolik jamiyatining shakllanishiga, korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatining ortishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois, huquqiy ta'limni takomillashtirish, uning mazmunini zamonaviy yondashuvlar asosida boyitish, o'qitish metodlarini yangilash va xorij tajribasini tatbiq etish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Mazkur maqolada maktab o'quv dasturlarida huquqiy bilimlarning o'rni, mazmuni, o'qitish metodlari, yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishdagi roli, shuningdek, huquqiy ta'limni yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va xulosalar tahlil qilinadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Hozirgi davrda O'zbekiston yoshlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimiz olimlari tomonidan yaratilgan nazariyalarni rivojlantirish kechayotgan islohotlar jarayonida yanada dolzarblashib, davr talabiga aylanib bormoqda. Yosh avlod jamiyat barqarorligining asosiy omili, jamiyat huquqiy madaniyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi kuch sifatida e'tirof etiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda huquqiy tasavvurlarni shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Bu yoshda beriladigan huquqiy bilimlar ko'proq oddiy hayotiy misollar, kundalik xulq-atvor qoidalari, xavfsizlik madaniyati, tartib-intizom va ijtimoiy munosabatlarning sodda ko'rinishlari asosida o'rgatiladi. Shu bois, mazkur bosqichda huquqiy bilimlar alohida fan sifatida emas, balki integratsiyalashgan holda bir nechta fanlar orqali beriladi.

Boshlang'ich ta'limda huquqiy tarbiya bir nechta fanlar orqali izchil shakllantiriladi. "Tarbiya" fani o'quvchilarga odob-axloq, maktab ichki tartibi, jamiyat va oiladagi rollar, hurmat, mas'uliyat va xushmuomalalik kabi ijtimoiy me'yorlarni o'rgatib, huquqiy xulq-atvor asoslarini yaratadi. "Ona tili va o'qish savodxonligi" fanida huquqiy mazmundagi matnlar bilan tanishish orqali o'quvchilarning huquqiy fikrlashi rivojlanadi, ular sodda hikoyalar orqali huquq va vazifalarni anglay boshlaydi. "Atrofimizdagi olam" esa xavfsizlik qoidalari, tabiatni asrash, jamoat joylaridagi odob va ekologik me'yorlar haqida dastlabki tushunchalarni beradi.

Hozirgi davrda O'zbekiston yoshlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimiz olimlari tomonidan yaratilgan nazariyalarni rivojlantirish kechayotgan islohotlar jarayonida yanada dolzarblashib, davr talabiga aylanib bormoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturlarida huquqiy bilimlar mazmunini shakllantirish milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq amaldagi o'quv dasturlarida huquqiy mavzular turli fanlarga bo'lingan holda, tizimli integratsiyasiz berilgani tufayli o'quvchilar tomonidan asosiy huquqiy tushunchalarning izchil o'zlashtirilishi qiyinlashmoqda.

Bu davrdagi huquqiy ta'limning asosiy mazmuni – o'quvchining o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglash, qoidalarga rioya qilish madaniyatini shakllantirish va bolalar huquqlari to'g'risida sodda ma'lumotlar berish. Bunday yondashuv keyingi bosqichlarda huquqiy bilimlarni chuqur o'zlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv dasturlarida huquqiy bilimlar mazmunini shakllantirish milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq amaldagi o'quv dasturlarida huquqiy mavzular turli fanlarga bo'lingan holda, tizimli integratsiyasiz berilgani tufayli o'quvchilar tomonidan asosiy huquqiy tushunchalarning izchil o'zlashtirilishi qiyinlashmoqda. Mazkur holat "Huquq asoslari" fani mazmunining ko'plab maktablarda faqat 8–9-sinflar bilan chegaralanib qolayotgani, o'quvchi yoshidan kelib chiqadigan bosqichma-bosqich huquqiy madaniyatni shakllantirishga to'liq xizmat qilmasligida ham namoyon bo'ladi. Shuningdek, o'qituvchilarning huquqiy savodxonlik darajasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligi mazkur sohaga oid kompetensiyalarni samarali shakllantirishni cheklab qo'ymoqda⁴.

Mazkur ilmiy muammoning yechimi sifatida quyidagi ilmiy-pedagogik yondashuvlar taklif qilinadi:

Vertikal integratsiyalashgan huquqiy ta'lim modeli – huquqiy bilimlarni 1–11-sinflarda yoshga mos mazmunda bosqichma-bosqich berish. Bu yondashuv o'quvchilar huquqiy tafakkurini muntazam rivojlantirishga xizmat qiladi⁵.

Fanlararo integratsiyani kuchaytirish – huquqiy mavzularni tarix, ona tili, ma'naviyat, sinf soatlari, hatto informatika kabi fanlar bilan uyg'unlashtirib o'qitish. Bu o'quvchilarda huquqiy holatlarni real hayot misollarida tushunish ko'nikmasini shakllantiradi.

Aktiv pedagogik metodlar joriy etish – "Keys-study", "Vaziyatli muhokama", "Sud jarayoni modeli", "Rol o'ynash" kabi amaliy metodlar orqali huquqiy bilimlarni tirik jarayon sifatida o'zlashtirish. Bu usul o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini kuchaytiradi.

O'qituvchilarning huquqiy kompetensiyasini oshirish – maxsus seminar-treninglar, malaka oshirish kurslari va onlayn platformalar orqali huquqiy bilimlarni yangilab borish.

Raqamli huquqiy resurslarni joriy etish – interaktiv platformalar, elektron darsliklar, huquqiy simulyatsiya o'yinlari (gamifikatsiya) orqali o'quvchilarda zamonaviy yondashuv asosida huquqiy madaniyatni shakllantirish.

⁴ Xolmatov R. O'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 28 b.

⁵ Rasulova N. Huquqiy ta'limning tizimli integratsiyasi. "Ta'lim va amaliyot" jurnali, 2022-yil, №4. – B. 45-46.

Mazkur yechimlarning izchil tatbiqi o'quv dasturlarida huquqiy bilimlar o'rnini mustahkamlash, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni erta shakllantirishga xizmat qiladi⁶.

Maktab o'quv dasturlarida huquqiy bilimlarning tizimli ravishda berilishi yosh avlodning huquqiy ongini shakllantirish, ularni demokratik jamiyatning faol va mas'uliyatli fuqarosi sifatida tarbiyalash muhim omil hisoblanadi. Ta'lim jarayoniga huquqiy mazmunni bosqichma-bosqich integratsiya qilish o'quvchilarda qonunlarga hurmat, shaxsiy huquq va majburiyatlarni anglash, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish kabi fazilatlarning erta yoshdan shakllanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarda huquqiy tushunchalarning sodda va hayotiy misollar asosida berilishi o'quvchilarning huquqiy xulq-atvori va intizomini mustahkamlaydi. O'rta va yuqori sinflarda esa huquq, davlat boshqaruvi, konstitutsiyaviy tuzum, inson huquqlari kabi murakkabroq mavzularning o'rganilishi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, amaliy tajriba ko'rsatadiki, barqaror hamkorlik bo'lgan maktab-oila jamoalarida o'quvchilarning huquqiy savodxonlik darajasi oshadi, sinfdagi huquqbuzarlik holatlari kamayadi, ota-onalar faolligi ortadi. Masalan, O'zbekistonda o'rganilgan tadqiqotlardan biri shuni ko'rsatdiki, maktab va ota-ona hamkorligi yuqori bo'lgan sinflarda o'quvchilarning maktabga qatnashuvi, darsga tayyorligi va tarbiyaviy holati ijobiy bo'lgan⁷. Ammo bu jarayon bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Oilalarning ayrimida texnologik infrastruktura zaif, onlayn metodlardan foydalanish imkoniyati cheklangan. Shuningdek, ota-onalar vaqt yetishmovchiligi, huquqiy tarbiya mavzusida bilim darajasi pastligi tufayli ham hamkorlikda passiv qolmoqda. Shu sababli, maktablar ota-onalarga mos tashkiliy shakllar: qisqa videolar, telegram-guruhlar, oilaviy test kabi innovatsiyalarni kiritmoqda. Masalan, maktab tomonidan tayyorlangan pochta orqali yuboriladigan haftalik "Huquqiy savod" risolalari oilalarda tarqatiladi va natijalar kuzatiladi. Shu bilan birga, hamkorlik jarayonida maktab ma'muriyati va ota-onalar kengashi o'rtasida huquqiy kompetensiyalarni oshirishga e'tibor berilishi lozim, ya'ni ota-onalarga huquqiy ma'lumotlar yetkazish, ularni tarbiyaviy jarayonda faol ishtirok etishga tayyorlash. Bunday tayyorgarlikning shakllari: maktab-oila hamkorligi bo'yicha virtual seminar-mahoratlar, ota-ona va maktab tomonidan birga o'tkaziladigan test sinovlari va baholash shakllari. Shu tarzda hamkorlik va huquqiy tarbiya jarayoni barqarorlashadi.

Boshlang'ich sinflarda huquqiy tushunchalarning sodda va hayotiy misollar asosida berilishi o'quvchilarning huquqiy xulq-atvori va intizomini mustahkamlaydi. O'rta va yuqori sinflarda esa huquq, davlat boshqaruvi, konstitutsiyaviy tuzum, inson huquqlari kabi murakkabroq mavzularning o'rganilishi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

⁶ Jo'rayev, A. O'qituvchilarning kasbiy huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlari. "Pedagogika" jurnali. 2021, № 2. – B. 29.

⁷ Rasulova N. Huquqiy ta'limning tizimli integratsiyasi. "Ta'lim va amaliyot" jurnali, 2022-yil, №4. – B. 45-46.

Yakuniy qism. Xulosa qilib aytish mumkinki, maktab va oila hamkorligida huquqiy tarbiyani amalga oshirishda innovatsion shakllarni joriy etish yosh avlodni huquqiy ongli fuqaroga aylantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bu shakllar maktab-lokal tizimni kengaytirib, oilaviy muhitni ham huquqiy tarbiyaga jalb qiladi, yoshlarni maktabdan oilaga, oiladan jamiyatga uzluksiz huquqiy tarbiya bilan yetaklaydi. Shu yo'l bilan davlat, jamiyat va oilaning birlashgan kuchi orqali huquqiy madaniyat yuksaladi, huquqbuzarlik holatlari qisqaradi va eng muhimi – yoshlar huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatiga ega bo'ladi.

“Tarbiya”, “Odam va jamiyat”, “Tarix”, “Huquq asoslari”, “Ona tili va adabiyot” kabi fanlar orqali integratsiyalashgan holda berilgani huquqiy tafakkurning kompleks rivojlanishiga yordam beradi. Bunda shaxsiy mas'uliyat, ijtimoiy faollik, qonun ustuvorligi, adolat, tenglik va erkinlik kabi demokratik qadriyatlarning o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

Umuman olganda, maktab o'quv dasturlaridagi huquqiy bilimlar jamiyatda fuqarolik pozitsiyasi mustahkam, ijtimoiy jarayonlarni ongli qabul qiladigan, o'z huquqlari va majburiyatlarini to'g'ri anglaydigan avlodni tarbiyalashning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Mazkur jarayonni yanada takomillashtirish uchun huquqiy ta'limning mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar, keyslar va real huquqiy vaziyatlar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 18.05.2020-yildagi 274-IV-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
4. Abdullayeva S. Boshlang'ich ta'limda huquqiy savodxonlikni shakllantirish. – Toshkent, 2020. – 144 b.
5. Amirov Z. “Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida” // Jamiyat va boshqaruv – 2015. – No 3.
6. Xolmatov R. O'quvchilar huquqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – B. 27.
7. Rasulova N. Huquqiy ta'limning tizimli integratsiyasi. “Ta'lim va amaliyot” jurnali, 2022-yil, – №4. – B. 45-46.
8. UNESCO. Education for Justice: Integration of Legal Literacy in School Curricula. Paris, 2020. – 18 p.
9. Karimov D. Interaktiv metodlar orqali huquqiy ta'lim samaradorligini oshirish. – Toshkent: Fan, 2023. – 64 b.
10. Jo'rayev A. O'qituvchilarning kasbiy huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlari. “Pedagogika” jurnali, 2021, №2. – B. 29.
11. Jo'rayev M., Xoliqova N. Yoshlar huquqiy tarbiyasi metodikasi. — Toshkent, 2022. – 85 b.